| MINTAQADA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA<br>INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI .....                                          | 533 |
| <b>Masharipov Sardorbek Farxadovich</b>                                                                                                    |     |
| TECHNOLOGY-DRIVEN VISITOR MANAGEMENT SYSTEMS FOR ENHANCING MUSEUM<br>EXPERIENCE AND PERFORMANCE .....                                      | 539 |
| <b>Ibroximova Aziza Abbasovna</b>                                                                                                          |     |
| XALQARO MOLİYAVIY INSTITUTLARNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI .....                                                                 | 545 |
| <b>Kurbonbekova Moxichexra Turobjonovna</b>                                                                                                |     |
| NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATIDA "AQLLI KON" KONSEPSIYASINI AMALGA<br>OSHIRISH TAJRIBASI .....                                          | 551 |
| <b>Kurbanova Mehriniso Nematjanovna</b>                                                                                                    |     |
| INVESTITSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA STRATEGIK<br>TA'SIRI .....                                                    | 556 |
| <b>Ibrohimov Behzodbek Baxromjon o'g'li</b>                                                                                                |     |
| SAMARQAND VILOYATI SAVDO KORXONALARI FAOLIYATINING TASHKILIY VA IQTISODIY<br>XUSUSIYATLARI .....                                           | 562 |
| <b>Toxirova Gullola Mirkamolovna</b>                                                                                                       |     |
| ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ<br>УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ СТРЕЛКОВОГО СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....    | 568 |
| <b>Юсупов И.</b>                                                                                                                           |     |
| ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ<br>В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ .....                                          | 573 |
| <b>Тарават Абдул-Салам</b>                                                                                                                 |     |
| MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI<br>TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI .....      | 581 |
| <b>Abduxamidov Sarvar Adxamovich</b>                                                                                                       |     |
| MUQOBIL ENERGIYA VOSITALARINI JORIY ETISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI .....                                                               | 586 |
| <b>Ashurov Azizbek Ergash o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI<br>FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI .....                    | 592 |
| <b>Qurbonova Muazzam Fazliddinovna</b>                                                                                                     |     |
| MEHMONXONA SANOATIDA ESG TUSHUNCHASI VA UNING AHAMIYATI .....                                                                              | 596 |
| <b>Xusenova Mexrangiz</b>                                                                                                                  |     |
| DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIK ASOSIDA HUDUDLARNING INVESTITSIYAVIY<br>JOZIBADORLIGINI OSHIRISH VA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH ..... | 600 |
| <b>Amirova Dilshoda, Usmonova Shahrinoz Ilhom qizi</b>                                                                                     |     |
| MINTAQQA IQTISODIYOTINI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINING<br>ROLINI EMPIRIK JIHATDAN TAHLILI .....                   | 605 |
| <b>Bekbergenov G'ayrat Shuxratovich</b>                                                                                                    |     |
| NITROGEN FIXATION CHARACTERISTICS OF AZOLLA CAROLINIANA UNDER THE INFLUENCE<br>OF HEAVY METAL (CR <sup>6+</sup> ) .....                    | 610 |
| <b>Sh. Azimov, E. Egamberdiev, S. Turabdajanov</b>                                                                                         |     |
| EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA NORMATIV-HUQUQIY<br>TARTIBGA SOLISHNING TA'SIRI .....                          | 616 |
| <b>Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna</b>                                                                                                      |     |



|                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| «O‘ZBEKNEFTGAZ» AKSIYADORLIK JAMIYATIDA «ESG» STANDARTLARINI JORIY ETISH .....              | 622 |
| <b>Ibragimova Saodat Abdumo‘minovna, Xusainov Ravshan Raximovich</b>                        |     |
| O‘ZBEKISTON SANOATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI DINAMIK<br>TAHLILI..... | 627 |
| <b>Ne‘matov Shoxruxbek Ma‘murjon o‘g‘li</b>                                                 |     |



# O'ZBEKISTON SANOATINING HOZIRGI HOLATI VA IQTISODIY KO'RSATKICHLARI DINAMIK TAHLILI

**Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: [sh.nematov@tsue.uz](mailto:sh.nematov@tsue.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston sanoatining hozirgi holati hamda asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarining so'nggi yillardagi dinamikasi kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida sanoatda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, modernizatsiya jarayonlari hamda tashqi iqtisodiy omillarning ta'siri baholanadi. O'tkazilgan tahlil natijalari asosida O'zbekiston sanoatining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashga qaratilgan mualliflik xulosalari hamda ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sanoat, iqtisodiy o'sish, sanoat ishlab chiqarishi, tarmoq tuzilmasi, investitsiyalar, dinamik tahlil, modernizatsiya.

**Abstract.** This article presents a comprehensive analysis of the current state of Uzbekistan's industry and the dynamics of its key economic indicators in recent years. The study evaluates the impact of institutional reforms implemented in the industrial sector, modernization processes, and external economic factors. Based on the results of the analysis, the author formulates conclusions and develops scientific and practical recommendations aimed at ensuring sustainable economic growth of Uzbekistan's industrial sector.

**Keywords:** industry, economic growth, industrial production, industrial structure, investments, dynamic analysis, modernization.

**Аннотация.** В данной статье проводится комплексный анализ современного состояния промышленности Узбекистана и динамики основных экономических показателей за последние годы. В ходе исследования оценивается влияние институциональных реформ, реализуемых в промышленной сфере, процессов модернизации, а также внешнеэкономических факторов. По результатам анализа сформулированы авторские выводы и разработаны научно-практические предложения, направленные на обеспечение устойчивого экономического роста промышленности Узбекистана.

**Ключевые слова:** промышленность, экономический рост, промышленное производство, отраслевая структура, инвестиции, динамический анализ, модернизация.

## KIRISH

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda sanoat tarmoqlari milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy drayver sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sanoatning rivojlanish darajasi iqtisodiy diversifikatsiya, eksport salohiyatini oshirish hamda mehnat unumdorligini yuksaltirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston sanoatining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish va uning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini baholash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, sanoatni modernizatsiya qilish hamda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son<sup>1</sup> Farmoni[1] sanoatning "drayver" sohalarini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard AQSh dollariga yetkazish, 2,5 millionta yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, shuningdek, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 baravar oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, sanoatning o'sish sur'atlari tarmoqlar kesimida bir xil emas, iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasida esa tarkibiy nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Shu bois, sanoat rivojlanishining real holatini aniqlash, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini dinamik tahlil qilish hamda mavjud muammolarni ilmiy asosda baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, sanoat rivojlanishi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyalarda keng o'rganilgan. Xususan, klassik va neoklassik iqtisodiy modellarda sanoat ishlab chiqarishi kapital jamg'arilishi va mehnat resurslari bilan uzviy bog'liq holda iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida qaraladi [2, 3].

Zamonaviy tadqiqotlarda esa sanoat rivojlanishi faqat ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan emas, balki tarmoq tuzilmasining sifat jihatdan o'zgarishi, innovatsiyalar va institutsional omillar bilan bog'liq holda talqin etiladi [4, 5]. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, sanoatda qo'shilgan qiymat ulushining ortishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlaydi hamda tashqi iqtisodiy shoklarga chidamlilik darajasini oshiradi [6, 7].

O'zbekiston iqtisodiyotiga oid ilmiy izlanishlarda sanoatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, tarmoqlar bo'yicha rivojlanish sur'atlari hamda investitsiya faolligi asosiy tahlil obyektlari sifatida qarab kelinmoqda.

Mahalliy tadqiqotlarda sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya qilish masalasi amaliy yondashuv asosida yoritilib, raqamlashtirishning mazmuni, uni korxona faoliyatiga tatbiq etish strategiyasi, texnologiyalarni guruhlash, afzalliklar va ehtimoliy xavflar, shuningdek, joriy etish bosqichlari va modellari (jarayon, tarmoq, texnologiya, matritsa) asoslab berilgan. Ushbu yondashuv sanoat ishlab chiqarishida samaradorlik va barqarorlikni oshirishga xizmat qiluvchi korxona darajasidagi mexanizmlarni ochib beradi [8].

Sanoat rivojlanishi yo'nalishidagi tadqiqotlarda sanoat tarmoqlarini joylashtirish va o'sish sur'atlarini belgilovchi omillar — tabiiy resurs bazasi, transport–energetika–aloqa infratuzilmasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), texnologiya transferi va xorijiy investorlar roli, shuningdek, ekologik talablar — tizimli tarzda yoritib berilgan. Ushbu yondashuv sanoat ko'rsatkichlarini tahlil qilishda faqat tarmoq kesimini emas, balki infratuzilmaviy o'lchovni ham inobatga olish zarurligini ko'rsatadi [9].

Fikrimizcha, sanoat rivojlanishini baholashda faqat ishlab chiqarish hajmi yoki investitsiya ko'rsatkichlariga tayanish bilan cheklanmasdan, ularning o'zaro bog'liqligi, tarkibiy o'zgarishlar hamda samaradorlik dinamikasini hisobga olgan holda kompleks tahlil o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv sanoat rivojlanishining real iqtisodiy manzarasini ochib berish imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston sanoatining hozirgi holati hamda iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini o'rganishda kompleks va tizimli metodologik yondashuv qo'llanildi. Xususan, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlarni o'rganish hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida sanoat rivojlanishiga oid nazariy qarashlar tahlil qilinib, ular asosida mualliflik xulosalari shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillarga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotida 2010–2024-yillar davomida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hamda asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarining barqaror va jadallashuvchi o'sishi kuzatiladi. Ushbu davr iqtisodiyotning miqdoriy kengayishi bilan bir qatorda tarkibiy transformatsiya jarayonlari jadal kechgan bosqich sifatida tavsiflanadi.

Xususan, 2010-yilda YAIM hajmi 79 519,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 1 454 573,9 mlrd. so'mga yetgan. Bu 14 yil davomida YAIM hajmining 18 barobardan ortiq o'sganini anglatadi. YAIM o'sish trayektoriyasi, ayniqsa, 2017-yildan keyin keskin jadallashgan bo'lib, bu jarayon iqtisodiy liberallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda tarmoqlarni modernizatsiya qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Fikrimizcha, YAIM o'sishining mazkur sur'ati iqtisodiyotda tarmoqlar ulushining o'zgarishi, ayniqsa, sanoat tarmog'ining nisbatan tezroq o'sishi bilan ta'minlangan.

Sanoat tarmog'i tahlil davrida eng yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etgan asosiy iqtisodiy drayver hisoblanadi. Agar 2010-yilda sanoat ishlab chiqarish hajmi 12 997,3 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 365 894,6 mlrd. so'mga yetgan. Bu sanoat ishlab chiqarishi hajmining 28 barobardan ortiq o'sganini ko'rsatadi.





Sanoatning o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgani uning iqtisodiyotdagi ustuvor tarmoqqa aylanganini tasdiqlaydi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning asosiy qismi sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymat hisobiga shakllangan.

Fikrimizcha, ushbu tendensiya sanoatni xomashyoga asoslangan iqtisodiy modeldan qayta ishlash, texnologiya va investitsiyalarga tayangan modelga o'tish jarayoni bilan izohlanadi. Ayniqsa, 2017–2024-yillarda sanoat hajmining tez sur'atlarda o'sishi tarmoqda modernizatsiya jarayonlarining faollashuvi, yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda xususiy sektor rolini oshishi natijasidir(1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAIM tarkibi<sup>2</sup>, mlrd. so'm

| Yil  | YAIM        | Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi | Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | Sanoat    | Qurilish | Xizmatlar |
|------|-------------|----------------------------------|------------------------------------|-----------|----------|-----------|
| 2010 | 79 519,8    | 9 463,6                          | 21 251,3                           | 12 997,3  | 3 760,5  | 32 047,1  |
| 2011 | 104 101,3   | 11 627,5                         | 30 658,6                           | 15 951,8  | 4 465,5  | 41 397,9  |
| 2012 | 128 677,7   | 14 316,8                         | 36 954,7                           | 20 462,6  | 5 601,4  | 51 342,2  |
| 2013 | 154 686,0   | 15 928,4                         | 42 636,8                           | 25 388,8  | 7 258,2  | 63 473,8  |
| 2014 | 188 743,9   | 18 380,4                         | 53 613,2                           | 32 136,7  | 9 098,3  | 75 515,3  |
| 2015 | 223 674,1   | 20 146,9                         | 64 680,3                           | 38 466,6  | 11 382,6 | 88 997,7  |
| 2016 | 257 968,5   | 22 431,5                         | 74 779,0                           | 45 398,0  | 13 148,0 | 102 212,0 |
| 2017 | 356 453,9   | 34 792,0                         | 90 739,8                           | 65 258,8  | 22 875,8 | 142 787,5 |
| 2018 | 473 653,1   | 45 575,8                         | 113 327,4                          | 102 879,6 | 32 788,4 | 179 081,9 |
| 2019 | 594 659,7   | 45 262,7                         | 129 885,0                          | 145 083,9 | 45 202,0 | 229 226,1 |
| 2020 | 668 038,0   | 44 361,5                         | 150 493,7                          | 162 013,3 | 51 927,4 | 259 242,1 |
| 2021 | 820 536,6   | 51 992,8                         | 181 787,7                          | 202 219,3 | 63 608,5 | 320 928,3 |
| 2022 | 995 573,1   | 59 778,2                         | 208 809,2                          | 240 210,4 | 73 209,4 | 413 565,9 |
| 2023 | 1 204 485,4 | 58 478,9                         | 242 916,4                          | 289 371,4 | 84 313,1 | 529 405,6 |
| 2024 | 1 454 573,9 | 67 963,9                         | 266 565,0                          | 365 894,6 | 96 801,9 | 657 348,5 |

Tadqiqotlarga ko'ra, 2010-yilda sanoatning YAIMdagi ulushi nisbatan cheklangan bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ulush sezilarli darajada oshgan. Bu holat iqtisodiyotda qishloq xo'jaligiga tayanishdan sanoat–xizmatlar modeliga o'tish tendensiyasini ko'rsatadi.


Sanoat ulushining oshishi quyidagi iqtisodiy natijalarni ta'minlagan:

- qo'shilgan qiymat darajasining oshishi;
- mehnat unumdorligining ortib borishi;
- eksport salohiyatining kengayishi;
- iqtisodiyotning tashqi shoklarga nisbatan chidamliligining kuchayishi.

Sanoatning YAIMdagi ulushi 2010-yilda 16,3 foizni, 2015-yilda 17,2 foizni, 2020-yilda 24,3 foizni, 2024-yilda esa 25,1 foizni tashkil etgan. Bu 2010–2024-yillar davomida sanoat ulushining 8,8 foiz punktga oshganini ko'rsatadi.

Fikrimizcha, ushbu tendensiya iqtisodiy o'sishda sanoatning roli tubdan kuchayganini anglatadi. Agar 2010-yilda iqtisodiyot ko'proq qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasi hisobiga shakllangan bo'lsa, keyingi yillarda sanoat iqtisodiy o'sishning asosiy drayveriga aylangan(1-rasm).

2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.


1-rasm. YAIMda sanoat mahsulotlarining ulushi<sup>3</sup>

Sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati 2010-yilda 13 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 38,5 trln. so'mga, 2020-yilda 162 trln. so'mga, 2024-yilga kelib esa 365,9 trln. so'mga yetgan. Ushbu ko'rsatkich 2010–2024-yillar davomida 28 barobardan ortiq o'sishni namoyon etgan.

Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, sanoat qo'shilgan qiymatining o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lgan. Bu esa iqtisodiy o'sishda sanoat hissasining mutanosib ravishda ortib borayotganini anglatadi.

Boshqacha aytganda, 2010–2024-yillar davomida O'zbekiston iqtisodiyotida sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymat yaratishda va YAIM tarkibini shakllantirishda yetakchi o'ringa ko'tarildi. Sanoat ulushining oshishi iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan mustahkamlanayotganini, ya'ni iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiya bosqichiga kirganini ko'rsatadi.

Demak, kelgusi yillarda iqtisodiy siyosatda sanoat ulushini saqlab qolish emas, balki uning samaradorligi va texnologik darajasini oshirish ustuvor vazifaga aylanishi lozim. Chunki sanoatning yuqori ulushi faqat barqaror qo'shilgan qiymat va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli manbaiga aylanishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, 2010-yilda jami sanoat mahsulotlari hajmi 38 119 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 880 198,5 mlrd. so'mga yetgan. Bu tahlil davrida sanoat ishlab chiqarishi hajmining 23 barobardan ortiq o'sganini anglatadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sanoati sanoat tizimining asosiy ustuni bo'lib, 2010-yilda 28 742,8 mlrd. so'mni tashkil etgan hajm 2024-yilda 745 094,4 mlrd. so'mga yetgan. Bu ishlab chiqarish sanoati hajmining 26 barobardan ziyod o'sganini ko'rsatadi.

Mazkur tahlillar natijasida ishlab chiqarish sanoati tarkibi bo'yicha quyidagi dinamik o'zgarishlar kuzatildi:

- oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 5 521,5 mlrd. so'mdan 2024-yilda 102 732,6 mlrd. so'mgacha o'sgan. Ushbu tarmoqda barqaror va izchil o'sish kuzatilib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda inflyatsion bosimni yumshatishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarida ham yuqori o'sish qayd etilgan bo'lib, mazkur yo'nalishlar ichki iste'mol bozori bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan;

- to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 4 845,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 89 489,0 mlrd. so'mga yetgan. Kiyim ishlab chiqarish tarmog'i esa 575,8 mlrd. so'mdan 31 906,8 mlrd. so'mgacha o'sgan. Ushbu ko'rsatkichlar O'zbekistonda to'qimachilik–tikuvchilik zanjirini chuqurlashtirish, paxta xomashyosini tayyor mahsulotgacha qayta ishlashga qaratilgan siyosat iqtisodiy jihatdan samara berganini ko'rsatadi. Fikrimizcha, mazkur tarmoqlar sanoat rivojlanishining mehnat sig'imi yuqori va eksportbop yo'nalishlari sifatida shakllanmoqda;

- koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 1 785,3 mlrd. so'mdan 2024-yilda 30 757,1 mlrd. so'mga yetgan. Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi ham ushbu davrda 1 960 mlrd. so'mdan 40 220,3 mlrd. so'mgacha o'sgan. Shu bilan birga, rezina va plastmassa buyumlari hamda nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarida ham yuqori sur'atlarda o'sish kuzatilgan. Bu holat sanoatda resurslarni chuqur qayta ishlash va import o'rni bosish siyosatining kuchayganini anglatadi;

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



• metallurgiya sanoatida ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 3 688,6 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 171 299,9 mlrd. so'mga yetgan. Mashina va uskunalar ishlab chiqarish, shuningdek, avtotransport vositalari ishlab chiqarish tarmoqlarida ham keskin o'sish qayd etilgan. Xususan, avtotransport vositalari ishlab chiqarish hajmining 2010-yilda 3 562,3 mlrd. so'mdan 2024-yilda 87 106,7 mlrd. so'mgacha oshishi mashinasozlik tarmog'ining sanoatdagi strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi;

• elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tarmog'ida ishlab chiqarish hajmi 2010-yilda 4 084,1 mlrd. so'mdan 2024-yilda 59 943,3 mlrd. so'mgacha o'sgan. Suv bilan ta'minlash va chiqindilarni utilitatsiya qilish sohasida ham barqaror o'sish kuzatilgan. Ushbu tarmoqlar sanoat o'sishining infratuzilmaviy poydevori sifatida xizmat qilib, ishlab chiqarish sanoatining barqaror faoliyat yuritishini ta'minlagan(2-jadval).

2-jadval. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi<sup>4</sup>, mlrd. so'm

|                                                                                                                | 2010    | 2015    | 2020     | 2024     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|---------|----------|----------|
| Jami sanoat mahsulotlari hajmi                                                                                 | 38119   | 97598,2 | 368740,2 | 880198,5 |
| Jumladan:                                                                                                      |         |         |          |          |
| Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash                                                                     | 5103,1  | 9466,6  | 33106,9  | 70248,2  |
| Ishlab chiqarish sanoati                                                                                       | 28742,8 | 78492,3 | 305928,6 | 745094,4 |
| shundan:                                                                                                       |         |         |          |          |
| Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                       | 5521,5  | 18511,6 | 42314,9  | 102732,6 |
| Ichimliklar ishlab chiqarish                                                                                   | 922,4   | 2538,1  | 7417,6   | 24118,1  |
| Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                           | 400     | 840     | 1951,2   | 4516,4   |
| To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                    | 4845,5  | 13241,7 | 36713,9  | 89489    |
| Kiyim ishlab chiqarish                                                                                         | 575,8   | 1585,3  | 10402,4  | 31906,8  |
| Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish                                                             | 80,7    | 757,9   | 1616,9   | 4137,1   |
| Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish | 70,6    | 745,3   | 1563,8   | 3360,9   |
| Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                 | 129,8   | 614,6   | 2257,8   | 8821,6   |
| Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish                                                            | 209,6   | 573,2   | 1081,5   | 3359,7   |
| Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish                                                     | 1785,3  | 3102,6  | 11003,3  | 30757,1  |
| Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish                                                                            | 1960    | 4993,7  | 21213,5  | 40220,3  |
| Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish                                             | 174,7   | 750,6   | 2543,5   | 4874,7   |
| Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish                                                                 | 572,7   | 1891,7  | 7017,7   | 17140,3  |
| Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish                                                           | 1640,6  | 4889,5  | 16287,7  | 42129,5  |
| Metallurgiya sanoati                                                                                           | 3688,6  | 8493    | 79445,1  | 171299,9 |
| Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish                                       | 565,7   | 1936,8  | 7063,3   | 17319,7  |
| Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish                                                   | 445,2   | 481,5   | 3457,7   | 4543,4   |
| Elektr uskunalari ishlab chiqarish                                                                             | 395,7   | 1587,7  | 8635,4   | 25252    |
| Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish                                          | 211,4   | 787,6   | 4291,3   | 8347     |
| Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish                                      | 3562,3  | 7826,3  | 33594,9  | 87106,7  |
| Boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish                                                                   | 91,3    | 212,4   | 879,3    | 2279,4   |
| Mebel ishlab chiqarish                                                                                         | 164,1   | 614,8   | 2097,3   | 7904,7   |
| Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish                                                                        | 226,7   | 450,6   | 1699,3   | 7423     |
| Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish                                                                 | 502,6   | 1065,6  | 1379,4   | 6054,8   |
| Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash                                                    | 4084,1  | 8993,3  | 27375,3  | 59934,3  |
| Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish                       | 189     | 645,8   | 2329,3   | 4921,5   |

4 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Umuman olganda, 2010–2024-yillarda O'zbekiston sanoati jadal miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat jihatdan chuqur tarkibiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Xususan, ishlab chiqarish sanoati, ayniqsa, to'qimachilik, kimyo, metallurgiya va mashinasozlik tarmoqlari sanoat rivojlanishining asosiy drayverlariga aylanib bormoqda.

Mazkur tendensiya iqtisodiyotni xomashyoga qaramlikdan yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga va eksportbop sanoat mahsulotlarini ko'paytirishga yo'naltirilgan mustahkam iqtisodiy asosni shakllantiradi. Kelgusi bosqichda esa sanoat siyosatining asosiy vazifasi ushbu o'sishni texnologik samaradorlik, energiya tejamlorlik va innovatsiyaga asoslangan barqaror rivojlanish yo'liga o'tkazishdan iborat bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan kompleks dinamik tahlil natijalari O'zbekiston sanoatining so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik tarmoq sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi. Tahlil jarayonida sanoat ishlab chiqarish hajmi, tarmoq tuzilmasi, investitsiya faolligi hamda mehnat unumdorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlandi va ularning milliy iqtisodiyot barqarorligiga ta'siri baholandi. Ushbu natijalar asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, O'zbekiston sanoati iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, uning rivojlanish sur'atlari milliy iqtisodiyot barqarorligi, eksport salohiyati hamda hududiy iqtisodiy faollikka bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Sanoat tarmoqlaridagi o'sish faqat ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan cheklanib qolmasdan, iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasiga ham xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, sanoat iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasi miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat jihatdan o'zgarishlarni ham aks ettirmoqda. Xususan, qayta ishlash sanoati ulushining oshishi qo'shilgan qiymat darajasining o'sishiga olib kelib, resursga bog'liq o'sish modelidan samaradorlikka yo'naltirilgan o'sish modeliga o'tish tendensiyasini shakllantirmoqda.

Uchinchidan, investitsiya faolligining o'sishi sanoatda texnologik modernizatsiya va ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash jarayonlarini jadallashtirmoqda. Biroq investitsiya resurslarining tarmoqlar kesimida samarali taqsimlanmasligi ayrim sohalarda ishlab chiqarish salohiyatining to'liq ro'yobga chiqmasligiga olib kelmoqda. Bu holat sanoat rivojlanishida ichki nomutanosibliklar saqlanib qolayotganini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, dinamik tahlil natijalari sanoat rivojlanishida mehnat unumdorligi va institutsional omillarning ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Ya'ni, sanoat o'sishining barqarorligi endilikda faqat kapital va investitsiya hajmiga emas, balki boshqaruv samaradorligi, texnologik yangilanish hamda inson kapitali sifatiga ham bog'liq bo'lib bormoqda.

Fikrimizcha, mamlakatimiz sanoatining barqaror iqtisodiy o'sishi quyidagi konseptual zanjir orqali ta'minlanadi: "investitsiya – texnologik modernizatsiya – mehnat unumdorligi – qo'shilgan qiymat – barqaror sanoat o'sishi". Ushbu zanjir sanoat siyosatida miqdoriy o'sishdan sifat jihatdan barqaror iqtisodiy o'sishga o'tish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, O'zbekiston sanoatini rivojlantirish hamda uning iqtisodiy ko'rsatkichlari barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Sanoat tarmoqlarida qo'shilgan qiymatni oshirishga yo'naltirilgan investitsiya siyosatini kuchaytirish zarur. Bunda investitsiyalarni xomashyo tarmoqlariga emas, balki yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan qayta ishlash va texnologik sohalarga ustuvor ravishda yo'naltirish maqsadga muvofiq.

2. Kam rivojlangan sanoat tarmoqlarida texnologik modernizatsiyani rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni joriy etish lozim. Xususan, soliq imtiyozlari, davlat–xususiy sheriklik asosidagi investitsiya loyihalari hamda texnologik transfer instrumentlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

3. Sanoat iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashda faqat statik yoki alohida ko'rsatkichlarga emas, balki dinamik va integral indeksli yondashuvga o'tish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuv sanoat rivojlanishining real holatini, tarkibiy o'zgarishlarini va samaradorlik darajasini to'liq aks ettirish imkonini beradi.

4. Hududiy sanoat rivojlanish dasturlarini iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Har bir hududning resurs salohiyati, logistika imkoniyatlari va mehnat bozori xususiyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashgan sanoat klasterlarini rivojlantirish iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston sanoatining hozirgi holati ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, uning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish, samaradorlikka yo'naltirilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish hamda sanoat rivojlanishini baholashda zamonaviy dinamik tahlil usullarini qo'llash zarur. Mazkur yondashuv sanoatni milliy iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratadigan, raqobatbardosh va barqaror tarmog'iga aylantirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Solow R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics, 1956, 70(1), 65–94-betlar.
3. Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy, 1990, 98(5), 71–102-betlar.
4. Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990. 74–91-betlar.
5. Stiglitz J. E. Globalization and Its Discontents Revisited. New York: W. W. Norton & Company, 2018. ISBN: 978-0-393-35516-1. 528 bet.
6. UNIDO. Industrial Development Report 2022: The Future of Industrialization in a Post-Pandemic World. Vienna, 2022. <https://www.unido.org/sites/default/files/unido-publications/2023-03/IDR-2022-en.pdf>
7. OECD. Industrial Policy for the 21st Century. Paris, 2021. [https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/05/an-industrial-policy-framework-for-oecd-countries\\_233e3061/0002217c-en.pdf](https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2022/05/an-industrial-policy-framework-for-oecd-countries_233e3061/0002217c-en.pdf)
8. Qodirov S. I. Sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali, 2/2022, mart–aprel (№ 00058), 360–368-betlar.
9. Raximov A. N. Sanoat tarmoqlarini hududiy rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari // "Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, II son, 2024, 152–160-betlar.
10. <https://lex.uz>
11. <https://stat.uz>



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 1**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)